

## GENDEROLINGVISTIK TAHLILIGA DOIR

O'ZMU lingvistika yo'nalishi I bosqich magistranti  
*Abdunazarova Maftuna*

**Kalit so'zlar:** genderolingvistika, antroposentirizm, feminism, gender stereotipi

**Anotatsiya:** Maqolada tilshunoslikning yangi sohalaridan hisoblangan gender tilshunoslik haqidagi qarashlar bayon qilingan bo'lib, gender tilshunoslikdagi muammolar olib beriladi. Dunyo va o'zbek lingvistikasida gender tilshunoslik bo'yicha qilingan ilmiy tatqiqot ishlari va yechimini kutayotgan masalalar haqida so'z yuritiladi.

**Keywords:** genderlinguistics, anthropocentrism, feminism, gender stereotypes

**Annotation:** The article describes the views on gender linguistics, which is one of the new areas of linguistics, and reveals the problems of gender linguistics. In world and Uzbek linguistics, there is a discussion of research work on gender linguistics and pending issues.

**Ключевые слова:** генеролингвистика, антропоцентризм, феминизм, гендерные стереотипы.

**Аннотация:** В статье описываются взгляды на гендерную лингвистику, которая является одним из новых направлений языкоznания, и раскрываются проблемы гендерной лингвистики. В мировом и узбекском языкоznании идет обсуждение научно-исследовательских работ по гендерной лингвистике и нерешенных вопросов.

**Kirish:** XX asr oxiri va XXI asr boshlari tilshunosligi "immonent" ya'ni sestem- strukturali tilshunoslikdan boshqa fanlar bilan erkin integratsiyalasha oladigan antroposentirik yo'nalishga o'tdi.

Zamonaviy tilshunoslikning asosiy xususiyatlaridan biri tilni inson omili bilan birgalikda o'rghanishga qaratilganligidadir. Bu esa til tatqiqoti urgusining obyektdan subyektga siljishini ko'rsatadi.<sup>1</sup>

Zamonaviy tilshunoslikda antroposentirik paradigma asosida bir qator yo'nalishlar yuzaga keldi. Bularga misol qilib pisixolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, genderolingvistika kabi bir qatortilshunoslik yo'nalishlarini kiritsak bo'ladi.

Ko'rinishidan, til va madaniyatning o'zaro ta'siri (jumladan, gender omili) barcha tillar va madaniyatlarda o'zini namoyon qilish ma'nosida universaldir. Boshqa

<sup>1</sup> E. Benveniste o'zining "Tildagi odam va insondagi til" kitobi [Benveniste 1974, p. 437-438].

tomondan ma'lum bir madaniyatning o'ziga xosligini aks ettiruvchi til tuzilmalari tufayli milliy o'ziga xoslikka ega.

Dunyo tilshunosligi va o'zbek tolshunosligida amalga oshirilgan genderolingvistik tatqiqotlarni tahlil qilish gender tilshunoslik muammolarini ohib berishga yordam beradi.

### Muhokama va natijalar

XX asr oxiri gender muammosini butun insoniyat taraqqiyoti uchun eng dolzarb masalalardan biri sifatida ilgari surdi. Gender omili shaxsiyatning eng muhim ko'sratkichlaridan biri bo'lib, u jinsni nafaqat biologik subyekt sifatida, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilangan aqliy tuzilma sifatida ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, D.Malishevskaya genderni "ijtimoiy va psixologik jarayonlar, shuningdek, jamiyat tomonidan yaratilgan va shaxsning xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi madaniy munosabatlar majmuasi" deb ta'riflaydi.<sup>2</sup> "Gender" atamasi 1968-yilda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Gender sotsio-lingvomadaniy kategoriya bo'lib, jinslar rolini an'anaviy o'rganishni nazarda tutmaydi. U psixologik jarayonlarning yirik majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan va milliy lisoniy, shaxsning axloqiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy ko'rsatmalar, qoidalardir.<sup>2</sup>

1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlarida til bo'yicha gender tadqiqotlari "Yangi ayollar harakati" tufayli, birinchi navbatda, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar (Buyuk Britaniya va AQSH) va Germaniyada keng tarqaldi, buning natijasida tilshunoslikda o'ziga xos yo'nalish paydo bo'ldi. Bu feministik tilshunoslik yoki tilning feministik tandqiqi deb ataladi.

Tilni feministik tandqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari orasida uning aniq polemik imperativi, lingvistik materiyani lingvistik tahlil qilishda inson bilimining turli sohalaridan foydalanish, shuningdek, til siyosatiga ma'lum ta'sir ko'rsatish kiradi.

Gender xususiyatining lingvistik belgilarini o'rganish jarayonida ayol ona tili sifatida til me'yorlaridagi o'zgarishlarga ko'proq yoki kamroq konservativmi yoki yo'qmi, hali aniq emas. Shunga qaramay, ba'zi tilshunoslar ayol nutqining ko'proq me'yoriyligi tarafdori, chunki ayol an'anaviy ravishda yosh avlod tarbiyasiga ko'proq ta'sir qiladi, buning natijasida u adabiy til me'yorlariga muvofiq gapirishga intiladi. Ikki tillilik sharoitida ayollar, qoida tariqasida, kelajakda o'z farzandlariga hayotda katta muvaffaqiyatlar keltirishi mumkin bo'lgan tilni afzal ko'radilar.<sup>3</sup>

### Genderolingvistikada quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi

<sup>2</sup> Shoira Usmonova "Linvokulturologiya" (Toshkent 2019, 192- bet)

<sup>3</sup> M.V. Tumshaya, L.N. Maslova "RUS TILI TILIDAGI GENERATLAR Gender va leksik qatlam

- Gender va muroojat shakllari
- Gender va intonatsiya
- Gender va urǵu
- Gender va giminatsiya
- Gender va ma’no ko‘chishi
- Gender va morfologik ko‘rsatkichlar
- Gender va sintaktik vositalar
- Gender va frazeologizm
- Gender va diskurs
- Gender va pragmatika
- Gender va olamning lisoniy manzarasi
- Gender va virtual olam

### Dunyo tilshunosligidagi genderolingvistik tatqiqotlar

Zamonaviy tilshunoslikda gender masalalarini o‘rganish turli yo‘nalishlarda amalgalashadi: lingvistik ongda jinsning qurilishi (E. I. Goroshko, T.B. Ryabova, I. I. Xaleeva), lug’at va frazeologiyada (A. V. Artemova, A. A. Grigoryan, IV Zykova, VN. Telia), badiiy adabiyotda (TV Grechushnikova, IL Savkina, M. Yu. Timofeev, NA Fateeva), nutqda (M. D. Goroshko, EI Goroshko, J. Coats, J. Xolms, D. Tannen, D. Zimmerman) , og’zaki bo‘lmagan muloqot bilan o‘zaro aloqada (GE Kreidlin, FI Kartashkova, VV Ganina, E.A. Vansyatskaya). Ko‘pgina olimlar tilda gender stereotiplarining ishlashini ko‘rib chiqadilar (L. I. Grishaeva, V. A. Efremov, A. V. Kirilina, V. V. Krasnyx, T. B. Ryabova, E. A. Karkishchenko); jinsn kognitiv hodisa sifatida o‘rganish amalgalashadi (L.V. Adonina, N.F. Alefirenko, S.A.)

Tilning gender jihatlari haqida gapirganda, V.I. Karasik gender tushunchasining kontseptualizatsiyasini va uni tilning turli darajalarida lingvistik aks ettirish vositalarini aniqlash va tavsiflash zarurati bilan duch keladi. Gender kontseptsiyasining “olamning lisoniy manzarsida” o‘rnini aniqlash vazifasi ham muhimroqdir, shuningdek, gender stereotiplarining tilda aks etishi. Bir qator tillarning gender xususiyatlarini o‘rganishda, so‘nggi paytlarda ko‘plab ilmiy ishlar bag’ishlangan madaniyatlararo taqqoslash muqarrar.

**Gender tilshunosligining O‘zbekistonda rivojlanishi** XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg‘in tus oldi. Ayniqsa, bu borada rus tilshunosligida e’tiborga molik ishlar amalgalashadi. Shuningdek, Z.Akbarovaning “O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi” hamda N.Ahmedovaning “O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik ishlarida jins anglatish maydoniga ko‘ra

murojaat so‘zlar guruhining izohi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Sh.Iskandarovaning “O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ayol va erkaklarga xos ba’zi lingvistik farqlar va “O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida jinsiy va fiziologik holat asosida farqlangan shaxs nomlari haqida, shuningdek, olimaning “Ayollar nutqida undov so‘zlarning qo‘llanishi”, “O‘zbek nutq odobini ifodalovchi paralingvistik vositalar” nomli maqolalarida ayollar nutqiga xos ba’zi lingvistik xususiyatlar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Jumladan, xotin-qizlarga xos xususiyatlardan biri ular his-hayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishidir, bu xuxsusiyat ko‘proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Ayollar nutqida dialogga moyillik nisbatan ustunroq ekanligi

Sh.Iskandarova tadqiqotlarida qayd etilgan. M.Saidxonovning “Noverbal vositalar va o‘zbek tilida ularning ifodalanishi” mavzusidagi nomzodlik ishida o‘zbek va boshqa millat ayollarining qayg’uni ifodalovchi usullari haqida to‘xtalib o‘tgan F.Musayeva esa “O‘zbek tilida biologik jinsn ni ifodalashning leksik-semantik usuli” nomli maqolasida erkak va ayol jinsi ma’nosini ifodalovchi leksemalar haqida ma’lumot beradi.Ushbu sanab o‘tilgan tadqiqotlarda bir tomonlama, ya’ni, asosan ayollar nutqining ba’zi lingvistik xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, ularda gender atamasi umuman qo‘llanilmagan va gender o‘rganish obyekti sifatida tadqiq qilinmagan. Shunday bo‘lsa ham, ko‘rsatilgan tadqiqotlar O‘zbekistonda gender tilshunosligining boshlanishiga va rivojlanishidagi ilk izlanishlar natijasi sifatida ahamiyatga molik.

Respublikamizda gender tilshunosligi borasida dastlabki qadamlar qo‘yildi. Jumladan, A.Morozova, I.To‘xtasinov va G.Ergasheva kabi yosh olimlarning nomzodlik tadqiqotlari bunga yaqqol misoldir.

Gender lingvistikasiga jiddiy e’tibor f.f.d., prof. Muhabbat Qurbonovaning tadqiqotlarida ham kuzatiladi. 2011-yilda chop etilgan “O‘zbek tilshunosligi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko‘zgusida” nomli ilmiy maqolalar to‘plamida S.Boymirzayeva bilan hamkorlikda “Tilshunoslikda gender tadqiqotlar” hamda “O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari ilmiy to‘plamida N.Rajabova bilan hammualliflikda “Diskursning gender xususiyatlari” nomli ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Lingvistikada gender masalalarga e’tiborning kengayib borishini biz 2013-yilda chop etilgan “Tilshunoslikning dolzarb masalalari” (ilmiy maqolalar to‘plami, VI kitob) to‘plamida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Mazkur to‘plamda gender masalalariga alohida “Genderologiya” bo‘limi ajratilgan bo‘lib, unda

N.Bekmuhamedovaning “Tanishuv e’lonlarida uchraydigan xulq stereotiplarining gender aspekti xususida”, B.Yo‘ldoshev va K.Rajabovalar hammuallifligida yozilgan “Shaxs tavsifi uchun qo‘llanuvchi zoonimlaming gender

xususiyatlari doir”, M.Isayevaning “Badiiy dialogik nutqda qo‘llanuvchi ba’zi vulgarizmlarning gender xususiyatlari haqida” deb nomlangan maqolalari o‘rin olgan.

### Xulosa :

- Til nazariyasi uchun til va nutqdagi gender tushunchalarini ularning badiiy matnda aks etishi, genderga oid asosiy tushunchalarni assotsativ va lingvomadaniy jihatlarini aniqlash va o‘rnatish dolzarbdir.
- Gender va sintaktik qatlam ham tilshunoslikda hali to‘liq o‘rganilmagan
- Gender xususiyatining ishlashi bilan bog’liq holda, fonetika, lug’at va grammatikani hisobga olgan holda, tilshunoslar nutq va til o‘zgarishlarini aniqlash va tahlil qilishga alohida e’tibor berishlari kerak.
- Gender va virtual olam bo‘yicha ham tatqiqot ishlari deyarli uchramaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. E. Benveniste “Tildagi odam va insondagi til” kitobi [Benveniste 1974].
2. Shoira Usmonova “Lingvokulturologiya”(Toshkent 2019)
3. M.V. Tomskaya, L.N. Maslova “RUS TILI TILDAGI GENERATLAR”[Karasik 1996, p. 4]
4. Qurbanova M.M., Boymirzaeva S. O‘zbek tilshunosligi mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko‘zgusida. 2011.